



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

26-
dekabr
2022-yil
dushanba

№12 (16)



TANISHING, DAVLAT STIPENDIYASI G'OLIBLARI!

E'tirof



PREZIDENT HAMDA NOMDOR DAVLAT STIPENDIYALARI G'OLIBLARI ANIQLANDI

2022/2023-o'quv yili uchun respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichining 566 nafar talabasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga munosib ko'rildi. Xususan, institutimizning 2 nafar talabasi nomdor davlat stipendiyasi sovrindoriga aylandilar.

Davolash ishi fakulteti 5-bosqich talabasi Nodirabegim Jamoliddinova Ibn Sino nomidagi Davlat stipendiyasi g'olibi bo'ldi. Huddi shu fakultet 4-bosqich talabasi Oqilbek Muhammadjonovga Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi nasib etdi.

E'tibor va hurmat

Institutda ta'lim olayotgan talabalarning barchasi iqtidorli, kuchli bilimga ega. Lekin ularning orasida ham o'z tashabbuskorligi bilan ajralib turadiganlari bor.

Nodirabegim Jamoliddinova o'qishning dastlabki kunlaridan o'zining ilmga va yangiliklarga chanoqligi, hamda tashabbuskorligi bilan kursdoshlari-yu, ustozlarning e'tibori va hurmatini qozondi.

Uning joriy yildagi eng katta yutuqlaridan biri Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi miqyosida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik tanlovida ishtirok etib, "Tashabbuskor islohotchi" ko'krak nishoni va ko'krak belgisini olgani hamda "Yil talabasi - 2022" tanlovi Oliy ta'lim muassasasi bosqichida I-darajali diplom bilan taqdirlanganidir.

—Bugungi kunda "Tibbiy ta'lim pedagoglari uchun tibbiyot pedagogikasi elektron metodik portalini yaratish" amaliy loyihasida jamoatchilik asosida qatnashib, innovatsion g'oyalar ustida ish olib bormoqdaman, — deydi Nodirabegim Jamoliddinova. — Kelajakda izlanishlar natijasida mustaqil O'zbekistonimizning rivojiga o'z hissasini qo'shishiga ishonch bildiraman.

Suhbatimiz davomida Oqilbek Muhammadjonov o'zining tahsil davri, izlanishlari va mehnat faoliyati haqida so'zlab berdi. Shu bilan birga, maqsadga erishish mezonlari, qaror qabul qilishdagi muhim jihatlar xususida qimmatli mushohada va mulohazalarini bildirdi.

Ayniqsa uning shu yili Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan "Medical English" xalqaro onlayn olimpiyadasida 1-darajali diplom bilan taqdirlangani diqqatga sazovordir. Shuningdek, Oqilbek tomonidan yozilgan maqolalar horij va mahalliy ilmiy nashrlarda chop etilganini ham e'tirof etish zarur.

O.Muhammadjonov faol tashkilotchiligi, O'zbekiston yoshlari ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda va jamoat ishlarida muntazam ishtirok etadi, o'z fikrini erkin aytishi bilan boshqa talabalardan ajralib turadi. Yutuqlar muborak bo'lsin!

I.ABDUJABBOROV.



Suratlar muallifi M.QODIROV



Milliy ta'lim jahon ilm-fani, amaliyotiga integratsiya qilinishi zarur.

Akmal SIDIQOV,
Farg'ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti rektori,
tibbiyot fanlari doktori,
professor.

Qadrlı professor-o'qituvchilar, aziz talabalar va xodimlar! Sizlarni, Yangi – 2023 yil – “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” bilan samimiy muborakbod etaman. Shu quvonchli kunlarda barchangizga tinchlik-osoyshtalik, sihat-salomatlik, baxtu saodat tilayman! Bugun, Yangi yil arafasida turib, o'tayotgan yilni sarhisob qilsak, har qancha shukronalar aytisak, arziydi. Bu yil sizlar bilan birga ulkan ishlarni amalga oshirdik.

Sarhisob

YANGI QIYOFA, YANGICHA QARASH, YANGICHA TAFAKKUR

ILMIY SALOHIYAT VA TARAQQIYOT MEZONLARI

Hozirda ilm dargohida 220 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatadi va ilmiy salohiyat 28 foizni tashkil etadi. Qariyb 3,5 ming talaba 4 ta fakul'tetda 8 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qimoqda. Shuningdek, magistratura, klinik ordinator va doktorantura ixtisosligida ham ilmiy yutuqlarimiz salmog'i tobora oshib bormoqda.

2022 yilda talabalarga mos ravishda 8 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 330 ta fan mavzulari qayta tayyorlandi. Shuningdek, 72 nafar professor-o'qituvchilar mamlakatimiz hamda 46 nafari xorijda malakasini oshirdi. Ikki yuz nafarga yaqin bitiruvchi kurs talabalari 70 ta tibbiyot muassasalarida amaliyot o'tishlari ta'minlandi.

Institutning davolash ishi yo'nalishida AQShning USMILE dasturi asosida talabalarni o'qitish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda 400 nafar talabalar ushbu dastur asosida tahsil olmoqda. Keyingi yillarda 10 ta ilmiy daraja



(8 ta nomzodlik - PhD, 2 ta doktorlik - DcS) muvaffaqiyatli himoya qilindi. Professor-o'qituvchilar tomonidan 550 ta maqola va tezislari e'lon qilinib, 15 ta darslik, 20 ta o'quv va 45 ta uslubiy qo'llanma, 8 ta monografiya yaratildi. Shuningdek, 153 nomdagi 2267 nusxa o'quv, badiiy va xorijiy adabiyotlar olindi.

Institut pedagogik jamoasi holatni tahlil etib, Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilinayotgan ilmiy va amaliy loyihalarning viloyatdagi mavjud muammolarga qaratish va taqsimlash, molekulyar genetik va raqamli patologiya (molecular

genetic and digital pathology) ilmiy laboratoriyasini tashkil etish hamda ixtisoslik kengashlari soninini ko'paytirishni taklif etadi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash uchun Kadaver kurslarini joriy etish, institutda ilmiy-tadqiqotlarni yanada jadallashtirish uchun yangi ilmiy laboratoriyalar barpo etish, anatomik teatr qurish va uni markazlashgan holda biomateriallar bilan to'ldirish, ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida ixtisoslik kengashlari hamda doktorantura o'rinlarini ko'paytirish zarur.

Bu yaqin istiqbolda ilmiy

salohiyatni 28 foizdan 32 foizgacha oshirish, o'quv jarayonini to'liq raqamlashtirish (hozirgi kunda 75 foiz), zamonaviy o'quv, xorijiy o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashni 85 foizdan 90 foizga yetkazish, Greenmetrics reytingida "A'zo" sifatida qatnashish, QS THE xalqaro reytinglarida "A'zo" maqomiga erishish imkonini beradi.

E'TIBOR VA RAG'BAT – YUTUQLAR OMILI

Yaqinda institutimizning 1500 o'rinli yangi o'quv binosi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Qurilish-bunyodkorlik ishlari jarayonida 500 o'rinli majlislar zali, 200 o'rinli oshxona, yangi sport maydoni, jihozlangan simulyasion markaz, vivariy, ilmiy-amaliy laboratoriya barpo etildi. Yaqin kelajakda esa 400 o'rinli talabalar yotoqxonasi bunyod etilishi ham ko'zda tutilmoqda.

Fransiya oliy ta'limi uslubida qurilib, ta'mirlangan binolarga 30 milliard so'm mablag' sarflandi. Ta'lim muassasasida endi zamonaviy jihozlar bilan

ta'minlangan 3 ta o'quv binosi, simulyasiya markazi, vivariy, ilmiy laboratoriya, 500 o'rinli anjumanlar zali, 200 o'rinli oshxona professor-o'qituvchilar hamda talabalar xizmatida.

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi har tomonlama iqtidorli, ilg'or bilim-ko'nikma, ilmiy va amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar bog'liq. Ayni jihatlarni inobatga olib, o'qituvchilarimiz xorijning yetakchi ilmiy markazlari, universitetlar laboratoriyalari, klinikalariga tajriba almashish uchun jo'natilmoqda.

Xususan, institutning "Biofizika va tibbiyot texnikasi" kafedra mudiri M.Mamajonov, kafedra dosenti M.Botirov va "Axborot texnologiyalari va sport" kafedrasini mudiri A.Abdumanonovlar Rossiya Federatsiyasining MI-REA Rossiya texnologiyalar universitetida malaka oshirib kelishdi. O'qituvchilarimiz universitetning Sun'iy intellekt instituti o'quv markazlari va laboratoriyalari, "Industriya 4.0: raqamli robotlashtirilgan ishlab chiqarish" institutlararo o'quv markazi, "Avtonom intellektual va multiagent robototexnik tizimlar" kafedralararo maxsus o'quv-ilmiy laboratoriyalar, "Mobil robototexnika" hamda texnokovring yoshlar markazlarida tajriba almashishdi.

Shuningdek, "Radioelektronika va informatika instituti laboratoriyalari, "Kosmosentr" kosmik monitoring markazi, "Radioelektron texnologiyalar", Rossiya ta'lim vazirligi situasion markazlari faoliyati bilan ham tanishdilar.

Tashrif davomida kasbiy modullar o'quv rejalari, o'quv dasturlari, ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishlarini tashkil etish va bajarilishi, institutning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqlik tizimlari, bitiruvchilarni kasbiy mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan simulyasion markaz va o'quv ilmiy-amaliy laboratoriyalari ish usuli o'rganilib, ushbu loyihalarni institutimizda joriy etish bo'yicha "yo'l xarita"lari ishlab chiqildi hamda bu orada hamkorlik rejasi tasdiqlandi.

Professor-o'qituvchilarimiz Rossiyaning Moskva shahrida joylashgan "Zamonaviy ilmiy-texnologik akademiya" "SNTA" uzluksiz kasb-hunar ta'limi avtonom notijorat tashkiloti faoliyati bilan ham tanishib, zamonaviy tibbiyot texnikalarini ishlatish, ularga servis xizmatlarini ko'rsatish, kasbiy tayyorgarlik bo'yicha kadrlarni tayyorlash to'g'risidagi kelishuvlarni amalga oshirdilar.

Davomi 3-betda

YANGI QIYOFA, YANGICHA QARASH, YANGICHA TAFAKKUR

Davomi. Boshi 2-betda

XALQARO HAMKORLIK VA AMALIYOT KO'LAMI KENG

Institutning 10 nafar turli mutaxassislik yo'nalishlaridagi professor-o'qituvchilar Rossiyaning fan va oliy ta'lim vazirligi reanimasiya hamda reabilitasiya federal ilmiy klinik markazi bilan tuzilgan shartnomaga asosan, Moskva shahrida xizmat safarida bo'lib qaytdilar. Tashrif doirasida delegasiya a'zolari tibbiyot markazi reanimasiya bo'limlarida bo'lib, o'zaro tajriba almashishdi. Fan va oliy ta'lim vazirligining reanimasiya va reabilitasiya binosidagi simulyasion markazda reanimasion yordam ko'rsatish usullari bo'yicha hamkorlikda amaliy tajribalar o'tkazildi.

2021 yilning noyabr oyida hindistonlik bir guruh tibbiyot sohasi vakillari institutimizda bo'lib, talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishgan edi. Bu o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish maqsadida qo'yilgan dastlabki qadam bo'ldi. Shu yilning mart oyida institut delegasiyasi ilmiy tashrif bilan Hindistonda bo'lib qaytdi.

Safar davomida Gurugram davlat universitetida hamkorlik shartnomalarini imzoladi. Shartnomaga ko'ra, ikkala oliy

ta'lim muassasasi o'rtasida farmasevtika yo'nalishida qo'shma fakul'tet tashkil etiladi. Bunda talabalar ikki yil Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida, ikki yil Gurugram davlat universitetida tahsil oladi. O'qish yakunida esa talabalarga Gurugram davlat universiteti diplomini topshiriladi.

Ilmiy tashrif doirasida institut delegasiyasi Hindistonda eng kuchli reyting beshtaligidan joy olgan Venkateshvar klinikasi bilan shartnoma tuzdi. Kliika nafaqat Hindiston, balki dunyo miqyosida onkologiya sohasiga ixtisoslashuv bo'yicha yuqori reytingga ega. Klinikada jigar, buyrak va boshqa ichki organlarni ko'chirib o'tkazish borasida jarrohlik amaliyotlari to'g'ridan to'g'ri amalga oshiriladi. Hamkorlik shartnomasi kelgusida institutimizda ta'lim olayotgan bakalavriat, magistratura va ordinatura bosqichi talabalari hamda institut professor-o'qituvchilarimizga mazkur klinikada bepul tajriba almashish, malaka oshirish va ilmiy-amaliy jarayonlarda bevosita ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Bugun nafaqat O'zbekiston yoki Farg'ona viloyati, balki butun dunyoda yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan va murakkab jarrohlik amaliyotiga ehtiyoj sezgan bemorlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning aksariyatida stent qo'yishga zarurat bor.

Yaqin yillargacha ham yurtimizda yurak-qon tomirlarga stent qo'yishga ishonish qiyin bo'lgan amaliyotdek qaralardi. Bundan besh yil avval O'zbekistonda ham faqat mamlakat poytaxtidagina olib borilgan stentlash bugun viloyatlarda

amalga oshirilmoqda. Jarrohlik amaliyoti jarayonida ishlatiladigan stentlar shu paytgachacha asosan xorij davlatlaridan keltirilar edi. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Fransiya, Xitoy, Isroil kabi davlatlar yurak qon-tomir stentlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Hozirgi kunda birgina stent narxi eng kamida 1,5 ming AQSh dollaridan boshlanadi. Ishlab chiqaruvchi davlatlar sarf-harajatiga qarab turlicha narxlarini belgilaydi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Belorussiya milliy texnika universiteti olimlari hamkorligida yo'lga qo'yilayotgan ushbu loyiha bemorlar uchun ancha arzon narxni taklif qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda institutimiz olimlari belorussiyalik hamkorlar bilan birgalikda ilmiy ishlar olib bormoqda. Bu loyiha doirasida inson organizmida bo'ladigan yurak va qon tomir stentlarini kobalt-xrom asosida ishlab chiqarish va elektrokimyoviy ishlov berish, biologik moslashuvchanligini o'rganish ustida ilmiy tadqiqotlar davom etyapti.

Loyiha 2023 yil dekabrda yakuniga yetishi hamda Farg'ona shahridagi "LISTEM-FERGANA" O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Natijada institutning biokimyoviy muxandislik ta'limi yo'nalishida o'qiyotgan 70 nafardan ortiq talabalar ish bilan ta'minlanadi.

NAZARIY VA AMALIY BILIMLAR UYG'UNLIGI

Institut qoshida ilmiy diagnostika markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu yerda xalq tabobati usullaridan foydalanish, turli infeksiyalarni aniqlash va tashxis qo'yish bilan birga koronavirus bor-yoqligini bir zumda aniqlash imkonini beruvchi tibbiy jihozlar o'rnatilgan.

Xalq tabobatini rivojlantirish, aholiga kam ziyon va ko'proq foyda beradigan odiy davolash usullarini taklif etish salomatlik posbonlarining burchidir. Ayni shu burchni his qilgan holda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida talabalar uchun mashg'ulotlar nafaqat zamonaviy tibbiyot ilmi, balki xalq tabobati bilimlari asosida ham olib borilishi yo'lga qo'yildi. Buning uchun institutning 2-son ichki kasalliklar kafedrasida diagnostika markazi samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu yerda xalq tabobatining noyob usullari, xususan, zuluk bilan davolash, xijoma, igloterapiya, fizioterapiya kabi samarador usullaridan foydalanish mumkin. Eng ahamiyatlisi, talaba va tadqiqotchilar ushbu markazda amaliy mashg'ulot va izlanishlar olib borishlari uchun ham barcha sharoitlar mavjud.

Institut professor-o'qituvchilari boshchiligidan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialida Davolash fakultetining 1-3-kurs talabalariga o'quv amaliyotini master-klass tarzida olib borish ham yo'lga qo'yilgan.

Amaliyot jarayonida talabalar bemorlar bilan muloqot qilish, kasallik tarixlarini o'rganish, kasalliklarning o'ziga xos murakkab tomonlarini o'rganib borishadi. O'z navbatida professor-o'qituvchi hamda yuqori kurslarda o'quvchi talabalarimiz muntazam ravishda hududlarda ommaviy sayyor qabullar ham o'tkazib kelishmoqda.

Farg'ona tumanining olis hududida joylashgan Qo'rg'ontepa oilaviy shifokor

punktida bo'lib o'tgan tibbiy ko'rikda bemorlarga 8 ta yo'nalish bo'yicha zarur maslahat berilib, ftzioterapiya muolajalari olib borildi. Viloyatning anklav hududi – So'x tumanida tashkil etilgan sayyor qabulda Tul, Xushyor oilaviy poliklinikalari, Mulgon, Sarikanda, Zangat oilaviy shifokor punktlari hamda "Malbut" mahalla fuqarolar yig'ini aholisi qamrab olindi. Shu tariqa viloyatda 3500 nafar bemorlar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va sog'lomlashtirildi. Bundan ko'zlangan maqsad institutning malakali oliy toifali shifokorlari tomonidan hududlarda surunkali davom etuvchi kasallik turlarini aniqlash hamda oldini olishga qaratilgan.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari g'amxo'rliq tufayli So'x tumani yoshlari uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat granti asosida 500 ta qo'shimcha qabul o'rinlari belgilangan. Bu o'rinlarning beshdan bir qismi tibbiyot yo'nalishiga to'g'ri kelmoqda. Bu borada so'xlik yigit-qizlar uchun Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutiga 100 ta qo'shimcha kvota ajratilgan.

Yaqinda Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Farg'ona viloyati hokimligi taklifi ma'qullanib, Farg'ona shahrida joylashgan 2-son shahar shifoxonasi negizida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ko'p tarmoqli klinikasi tashkil etilishi belgilandi. Bu haqda hukumat qarori qabul qilindi.

Nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida ko'p tarmoqli klinikada barcha sharoitlar yaratiladi. Bu borada tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ga ko'ra, institut klinikasini rekonstruksiya qilish ishlari 2023 yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Greenmetrics UI" xalqaro nufuzli reytingida TOP-1000 ta oliy ta'lim muassasalari qatorida barqaror rivojlanayotgan universitet sifatida e'tirof etildi.

Yaqinda Indoneziyaning "Greenmetrics UI" xalqaro reyting agentligining 2022 yil uchun butun dunyo oliy ta'lim muassasalari bo'yicha reyting natijalari e'lon qilindi. Quvonarlisi, ushbu reytingda ilk marotaba qatnashayotgan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'rin oldi.

Institut 6 ta yo'nalishi bo'yicha 5205 ball to'plab, 642-o'rinda qayd etildi.

Ushbu yutuq tufayli Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti dunyoning top universitetlari qatorida e'tirof etilishi uchun katta qadam tashladi.

Shuningdek, institut infrastrukturasini, "yashil tabiat"ni tashkil etishdagi o'rni, ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning ilmiy - tadqiqot faoliyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa o'rnida aytganda, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini yuksaltirish, mamlakatimiz va xalqaro miqyosda hamkorlik ko'lamini kengaytirib borish, talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida institutda ilm-fanda do'stona muhitni shakllantirish, nazariy bilim va amaliy ko'nikma jarayonini o'zaro uyg'unlashtirish singari dolzarb vazifalar bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolaveradi.

B.MADIYOROV.



Quvonarlisi, o'zaro kelishuv asosida Hindiston poytaxti Dehli shahrida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining maxsus ofisi tashkil etildi va o'z ish faoliyatini boshladi. Bu yerda institutning o'qitish jarayoni, xorijlik talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va ularga beriladigan imtiyozlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin.





Bilasizmi?

"Anesteziologlar, reanimatologlar va intensivistlar" klubida yil davomida turli loyihalar doirasida tadbirlar, "Diagnostic championship" kabi intellektual o'yinlar o'tkazilib kelinmoqda.



Iqtidorli talabalaridan tashkil etilgan jamoalar o'rtasida bo'lib o'tadigan o'yinlar ilmga chanqoq, kreativ fikrlovchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam bermoqda.

Shuningdek, ishtirokchi talabalar klinik fikrlash, to'g'ri va aniq tashxislashni o'rganadi, qiyosiy tashxislash ko'nikmasini oshiradi, talabalikdan shifokorlik hislatlarini orttiradi.

YETUK TIBBIY KADRLAR TAYYORLASH — BOSH MAQSADIMIZ

Joriy yil institut rektori Akmal Sidikov boshchiligidagi olib borilgan bunyodkorlik ishlari natijasida oliygohda zamonaviy o'quv-simulyatsiya markazi tashkil etildi.

Ko'p funksiyali markaz, ya'ni o'quv-simulyatsiya laboratoriyasi tashkil etilgani talabalarga sifatli bilim berish, nazariya va amaliyotni uyg'un olib borish imkoniyatini yaratdi. Mazkur innovatsion usul orqali ta'lim amaliy ishlari, ilg'or o'qitish uslublari uyg'unligida olib boriladi. Bu albatta, o'qitish sifati va shifokorlar mahorati yuksalishiga, zamonaviy ilg'or tajribalarni o'rganishiga yaqindan yordam bermoqda. Markazda moslashtirilgan anesteziologiya-reanimatsiya, jarrohlik, akusher-ginekologiya, oftalmologiya, otorinolaringologiya, terapiya, pediatriya-neontologiya, anatomiya va bemor simulyatsiya kabinetlari tashkil etilib, eng so'nggi rusumdagi tibbiy asbob-uskunalar, zarur o'quv jihozlari bilan ta'minlandi.

Ta'lim sifatini oshirishda simulyatsion o'qitishning qaytar bog'lanish va ko'p marotaba kuzatish, imitatsion va virtual trening singari qator ustuvor yo'nalishlari markaz faoliyatiga to'liq tadbir etildi. Natijada talabalar bemor bilan ishlash borasida yetarli amaliy tajribaga ega bo'lmoqdalar. Pult-nazorat markazida ekspertlar va boshqa talabalar tengdoshlari tomonidan bemorni

ko'rish, ular bilan muloqot qilish, tavsiyalar berish amaliyotni qay darajada bajarilayotganini kuzatib baho berib boradilar.

Tibbiyotda simulyatsion o'qitish bo'yicha hozirda Yevropa hamda Rossiya mutaxasssilarining uslubiy tavsiyalari olinib, tajriba almashish jarayonlari davom etmoqda. Talabalarning amaliy tayyorgarligi, bilim va malakasini baholash, o'ziga xos klinik qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishga doir xalqaro bayonnomalar, chek-listlar markaz faoliyatiga tadbir qilinmoqda.

—Xorijlik mutaxasssilar bilan hamkorlikda kelgusida markaz faoliyatini yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan, — deydi markaz rahbari, gospital va fakultativ jarrohlik kafedrasida assistenti, anesteziolog-reanimatolog Shohrux Ahmadaliev. — Markaz qoshida "Anesteziologlar-reanimatologlar va intensivistlar" klubi tashkil qilingan bo'lib, 100 nafarga yaqin soha vakillari, magistr va bakalavriat talabalari bilan shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus treninglar, master klass va vork-shoplar olib borilmoqda.

Har tomonlama yetuk va raqobatbardosh shifokorlarni tayyorlash, amaliyotga qaratilgan o'quv jarayonini zamonaviy fantom, simulyatorlar va laboratoriyalar bilan jihozlash orqali tibbiy oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarish institut o'quv-simulyatsion markazining yetakchi maqsadi hisoblanadi.

M.DEHQONOVA



JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOV

Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 29.12.2022 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500